



Kichik biznesni rivojlantirish jamg'armasi

KIMYOVIY TOZALASH XIZMATINI TASHKIL ETISH LOYIHASI



TOSHKENT – 2024-YIL



UO'K _____
KBK _____
Q _____

O'quv qo'llanma "Biznesni Rivojlantirish Banki" ATB va "Kichik biznesni rivojlantirish jamg'armasi" MChJ muassisligida tayyorlandi hamda nashr ettirildi.

Muallif

Rashidov F.I. - Kichik biznesni rivojlantirish jamg'armasi O'qitish ishlarini tashkil qilish boshqarmasi boshlig'i, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD).

Loyiha ishtirokchilari:

Otamurodov J.Y., Babamuhamedov A.A. – Kichik biznesni rivojlantirish jamg'armasi xodimlari

Taqrizchi:

Rizaev N.K. - O'zbekiston Respublikasi Bank-Moliya Akademiyasi, "Buxgalteriya hisobi" kafedrası professori, iqtisod fanlari doktori

Tahrirchi:

Dilfuza Narxujayeva – Kichik biznesni rivojlantirish jamg'armasi xodimi

Ushbu o'quv qo'llanma Kichik biznesni rivojlantirish jamg'armasi ijro organi majlisida muhokama qilingan va nashrga tavsiya qilingan.

**O'quv qo'llanma Biznesni Rivojlantirish Banki va
Kichik Biznesni Rivojlantirish Jamg'armasi tuhfasi hisoblanadi.**

ISBN _____

© "Biznesni Rivojlantirish Banki" ATB -2024
© "Kichik biznesni rivojlantirish jamg'armasi" MChJ - 2024

Mazkur o'quv qo'llanma kichik biznes tadbirkorlari uchun asosiy o'quv adabiyoti sifatida xorijiy tajriba asosida tayyorlangan bo'lib, undan kichik biznes tadbirkorlari o'z biznes loyihalarini tashkil etish uchun dastur sifatida foydalanishlari mumkin.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "O'zbekiston Respublikasi Prezidentining tadbirkorlar bilan 2023-yildagi ochiq muloqotida belgilangan vazifalarni amalga oshirish chora-tadbirlari to'g'risida" 2023-yil 4-sentabrdagi PQ-292-son, "Kichik biznesni rivojlantirishni moliyaviy va institutsional qo'llab-quvvatlash chora-tadbirlari to'g'risida" 2023-yil 14-sentabrdagi PQ-306-son, "Aholini kichik va o'rta biznesga keng jalb qilishning qo'shimcha chora-tadbirlari to'g'risida" 2023-yil 15-noyabrdagi PQ-366-son, "2024-yilda yangi ish o'rinlarini tashkil etish va aholi bandligiga ko'maklashish dasturi to'g'risida" 2024-yil 9-yanvardagi PQ-7-son Qarorlari va O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining "Kichik biznesni uzluksiz qo'llab-quvvatlash" kompleks dasturini amalga oshirish chora-tadbirlari to'g'risida" 2024-yil 20-yanvardagi 37-sonli Qarori ijrosini ta'minlash maqsadida ushbu o'quv qo'llanma ishlab chiqilgan.

Ushbu o'quv qo'llanma Birlashgan Millatlar Tashkilotining Sanoat Rivojlanishi Tashkilot (UNIDO) talablari asosida tuzilgan bo'lib, 60411300-"Biznesni boshqarish" (Bakalavriyat), 70411301-"Kichik biznes va xususiy tadbirkorlikni tashkil etish" (Magistratura) hamda 08.00.15-"Tadbirkorlik va kichik biznes iqtisodiyoti" (Doktorantura) ta'lim yo'nalishlari bo'yicha ta'lim olayotgan talabalar va ilmiy tadqiqotlar olib borayotgan mustaqil izlanuvchilar ham o'quv qo'llanma sifatida foydalanishlari mumkin.

O'quv qo'llanmada loyihani tashkil etish, biznes yuritish, loyihani boshqarish, loyihani menejmenti va marketingi, loyihani texnik jihatlar, texnologik jihozlar va texnologik jarayonlar, ishlab chiqarish rejasi, ta'minot rejasi, HR-rejasi, moliyaviy rejasi, loyihaning zararsiz ishlash nuqtasi, loyihani rentabelligi, NPV va IRR koeffitsiyentlari, loyihani o'zini-o'zi qoplash muddati masalalari yoritib berilgan.



HURMATLI BIZNES VAKILLARI!

Ma'lumki, kichik biznes – bu mahallaga, tumanga yangi muhit olib kiradigan, odamlarimizga shijoat beradigan katta kuchdir.

Iqtisodiyoti jadal rivojlanayotgan ko'plab davlatlarda ish o'rinlarining 70-80 foizi shu soha vakillari tomonidan yaratilmoqda. Barcha nufuzli kompaniyalar tarixi ham aynan kichik va o'rta biznesdan boshlangan.

So'nggi yillarda mamlakatimizda mikro-biznes va oilaviy tadbirkorlikni rivojlantirish bo'yicha katta amaliy ishlar qilindi. Dasturlar orqali mikro-biznesni moliyaviy qo'llab-quvvatlashga har yili 1 milliard dollardan ziyod mablag' yo'naltiryapmiz. Natijada bugun har bir mahallada kamida 40-50 nafar yangi tadbirkor paydo bo'lib, minglab doimiy ish o'rinlari yaratilmoqda. Lekin kichik biznesni manzilli qo'llab-quvvatlash, ularga zarur shart-sharoitlar yaratish borasida bunday muhit hali to'liq shakllanib ulgurmaydi, desak, adolatdan bo'ladi.

Biz yil boshida kichik biznes toifasiga kimlar kirishini aniq belgilab oldik. Endi kichik tadbirkorlarning "oyoqqa turib olishi" va faoliyatini kengaytirishi uchun mutlaqo yangi yondashuvlarni joriy etamiz. Bunda ushbu soha vakillarini tadbirkorlikka o'qitish, ularga loyiha tayyorlab berish, faoliyatini moliyalashtirish, mahsulotlariga bozor, biznesiga sheriklar topish bo'yicha yaxlit eko-tizim yaratiladi.

Buning uchun, eng avvalo, "Qishloq qurilish bank"ni "Biznesni rivojlantirish banki"ga aylantiramiz. Ushbu yangi bankning faoliyati ham, ishlash uslubi va moliyalashtirish mexanizmlari ham yangicha bo'ladi. Jumladan, bank huzurida har bir hududda jami 14 ta kichik biznes markazi tashkil etiladi.

Markazlar esa tashabbuskorlarning biznes loyihalarini ishlab chiqishga ko'maklashadi, o'z hisobidan yangi loyiha qilmoqchi bo'lgan

tadbirkorlarni o'qitadi, yangi loyihalarga zarur mutaxassislarni jalb qiladi, tadbirkorlar uchun buxgalteriya, soliq, audit, marketing, huquqiy va boshqa konsalting xizmatlarini ko'rsatadi.

Ikkinchidan, hududlardagi Kichik biznes markazlarida o'qigan tadbirkorlarning loyihalarini eng qulay shartlar asosida moliyalashtirish yo'lga qo'yiladi.

Uchinchidan, Kichik biznes markazlari ko'magida loyiha tashabbuskori va yirik davlat korxonalari bilan kooperatsiya aloqalari o'rnatiladi. Bunda yangi korxonalarda zamonaviy texnologiyalarni joriy qilish, xodimlar malakasini oshirish va mahsulotini realizatsiya qilishga Markazlar yordam beradi.

Shu bilan birga, ushbu korxonalarga davlat xaridlari tizimida o'zi ishlab chiqargan mahsulotlarni 2 yil davomida to'g'ridan-to'g'ri shartnoma bilan sotishga ruxsat beriladi.

To'rtinchidan, Kichik biznes markazlarini boshqarishga xususiy sheriklar jalb qilinadi. Ushbu tadbirkorlarga "Biznesni rivojlantirish banki"ga hissador bo'lib kirish huquqi beriladi.

Beshinchidan, yangi tizimni joriy etish bo'yicha alohida qonun ham qabul qilamiz. Bunda markaz bilan hamkorlikda kichik biznes loyihalarini amalga oshirish bilan bog'liq barcha jarayonlar soddalashgan tartibda belgilanadi.

Maqsadimiz – bir yil ichida kamida 150 mingta kichik biznes subyektini "oyoqqa turg'izish", kamida 25 mingtasini o'rta korxonalarga aylantirish, sohada 250 mingta yangi doimiy ish o'rni yaratishdan iborat.

**O'zbekiston Respublikasi Prezidenti
Shavkat Mirziyoyevning mamlakatimiz
tadbirkorlari bilan ochiq muloqot shaklida o'tkazilgan
uchrashuvdagi nutqidan**

18.08.2023



MUNDARIJA

Moliyaviy termin va atamalarning glossariysi	8
1. Loyiha maqsadi	10
1.1. Loyiha maqsadi	11
2. Loyiha tashabbuskori	12
2.1. Loyiha tashabbuskori	13
3. Loyiha strategiyasi	14
3.1. Loyiha strategiyasi	15
4. Xizmat ko'rsatishni tashkil etish	16
4.1. Kimyoviy tozalash xizmati haqida	17
4.2. Xom-ashyo haqida	19
4.3. Jihoz va uskunalar. Ishlab chiqarish jarayoni	23
4.4. Infrastruktura	26
5. Marketing konsepsiyasi	28

5.1. Marketing konsepsiyasi	29
6. Xizmat ko'rsatish rejasi	36
6.1. Xizmat ko'rsatish rejasi	37
7. HR rejasi	40
7.1. HR rejasi	41
8. Ta'minot rejasi	42
8.1. Ta'minot rejasi	43
9. Moliyaviy reja	44
9.1. Moliyaviy reja	45
9.2. Loyihani amalga oshirish uchun olinadigan kredit shartlari	46
9.3. Loyihani moliyalashtirish: moliyalashtirish mexanizmi va manbalari	47
10. Xulosalar	48
11. Loyihaning hisob-kitob qismi	52



MOLIYAVIY TERMIN VA ATAMALARNING GLOSSARIYSI

Atama nomi	Kengaytmasi	O'zbek tilidagi ma'nosi
PV	Present Value	Kelajakdagi pul oqimlarining joriy qiymatini aniqlash imkonini beruvchi moliyaviy ko'rsatkich.
NPV	Net Present Value	Investitsiya loyihalari samaradorligini baholash uchun foydalaniladigan ko'rsatkich. Bu ko'rsatkich yillar davomidagi pul oqimlarini joriy qiymati va biznesga kiritilgan sarmoyaninig farqi sifatida aniqlanadi.
IRR	Internal Rate of Return	Investitsiyalarning ichki daromadlilik darajasi (IIDD) yoki ichki rentabellik darajasi potentsial investitsiyalar rentabelligini baholash uchun moliyaviy tahlilda qo'llaniladigan ko'rsatkichdir. IRR diskontlangan pul oqimlarini tahlil qilishda barcha pul oqimlarining sof joriy qiymatini (NPV) nolga tenglashtiradigan diskont stavkasi.
Diskontsiz kummulyativ saldo		Pul oqimini boshqarish va moliyaviy rejalashtirishda qo'llaniladigan o'lchovdir. Bu ko'rsatkich pul oqimlarini ma'lum bir muddatga qoldig'ini ko'rsatadi.
Diskontli kummulyativ saldo		Diskontni hisobga olgan holda jamlangan qoldiq - bu diskont stavkasini hisobga olgan holda har bir kichik davr oxirida to'plangan pulning umumiy miqdorini baholash imkonini beruvchi moliyaviy ko'rsatkich.





1. LOYIHA MAQSADI



1. 1. LOYIHA MAQSADI

Ushbu loyihaning asosiy maqsadi kimyoviy tozalash xizmatini tashkil etishdir.

Bundan tashqari, loyihani ishga tushirish orqali respublika aholisining kimyoviy tozalash xizmatiga bo'lgan ehtiyojini qondirish, hamda yangi ish o'rinlari yaratish maqsad qilingan.

Ushbu loyihani amalga oshirish kimyoviy tozalash uskunalarini xarid qilish maqsadida umumiy qiymati 750 mln so'm miqdorida investitsiya (bundan 500 mln. so'm bank krediti) mablag'larini jalb qilish yo'li bilan amalga oshirilishi rejalashtirilgan.

Loyihaning boshlang'ich qiymati quyidagi jadvalda ko'rsatilgan.

(ming so'mda)

Nomi	Summa	Loyihada ishtirok etish			
		Kredit	%	O'z mablag'lari	%
Kimyoviy tozalash uskunolari	500 000	500 000	100 %	0	0%
Jami asosiy vositalar	500 000	500 000	100%	0	0%
Aylanma mablag'	212 500		0%	212 500	100%
Investitsion davrdagi kredit foizlari	37 500		0%	37 500	100%
Jami	750 000	500 000	67%	250 000	33%



2. LOYIHA TASHABBUSKORI



2.1. LOYIHA TASHABBUSKORI

Loyiha tashabbuskorining asosiy faoliyati kimyoviy tozalash xizmatini tashkil etish hisoblanadi. Shuningdek, O'zbekiston Respublikasi qonunchilik hujjatlarida taqiqlanmagan va tashkilot ustaviga muvofiq boshqa faoliyat turlari kiradi.

Loyiha tashabbuskori O'zbekiston Respublikasi qonunchilik hujjatlarida belgilangan tartibda davlat ro'yxatidan o'tkazilgan kundan boshlab tadbirkorlik subyekti hisoblanadi.

Loyiha tashabbuskori xo'jalik faoliyatini o'zini-o'zi ta'minlash va o'zini-o'zi moliyalashtirish tamoyillari asosida amalga oshirishi va O'zbekiston Respublikasi bank muassasalarida so'm va chet el valyutasidagi hisobvaraqlariga ega bo'ladi.

Loyihaning joriy faoliyatini boshqarish nafaqat menejment sohasida, balki xizmat ko'rsatish sohasida tajribaga ega bo'lgan direktor tomonidan amalga oshirilishi maqsadga muvofiq.





3. LOYIHA STRATEGIYASI



3.1. LOYIHA STRATEGIYASI

O'zbekiston Respublikasi iqtisodiyotining ustuvor tarmoqlarida tarkibiy o'zgarishlarning asosiy vositalaridan biri iqtisodiyotga investitsiyalarni jalb qilish bo'yicha davlat siyosati hisoblanadi.

So'nggi yillarda O'zbekistonda juda qulay investitsiya muhiti yaratildi, bu birinchi navbatda, har qanday strategik investor uchun muhim bo'lgan siyosiy va iqtisodiy barqarorlik bilan tavsiflanadi.

Kichik biznesni rag'batlantirishning mavjud choralari va kichik biznes loyihalariga imtiyozlar berilishi loyihani yaratishning asosiy sabablari sifatida ko'rsatilishi mumkin.

Ushbu loyiha doirasida loyiha tashabbuskorining strategik maqsadi ushbu biznes loyiha uchun qulay hududda kimyoviy tozalash xizmatini tashkil etishdir.





4. XIZMAT KO'RSATISHNI TASHKIL ETISH




4.1. KIMYOVIY TOZALASH XIZMATI HAQIDA

Garchi kir yuvish mashinasi kiyimlarni tez, samarali va qulay yuvish usulini taqdim etish orqali odamlarning hayotini osonlashtirgan bo'lsa-da, u katta hajmli narsalarni yoki tozalash qiyin bo'lgan dog'larni ketkaza olmaydi. Shuning uchun, odamlar u yoki bu tarzda, professional kimyoviy tozalash xizmatlariga murojaat qilishadi.

Kimyoviy tozalash – nima?

Kimyoviy tozalash – suvdan boshqa erituvchidan foydalanadigan mahsulotni tozalashning fizik-kimyoviy jarayonidir. An'anaviy kir yuvish orqali ketkazib bo'lmaydigan dog'larni aynan kimyoviy tozalash orqali ketkazsa bo'ladi. Gilamlar, pardalar, yumshoq mebellar va boshqa buyumlarni kimyoviy tozalashni aynan shu soha professionallariga ishonish kerak. Bu jarayon maxsus kimyoviy moddalar va uskunalardan foydalanishni talab qiladi. Ko'pincha odamlar kimyoviy tozalashni mustaqil ravishda amalga oshirishga xarakat qilishadi. Qoida tariqasida, bu tozalanayotgan buyumlarning shikastlanishiga va ularni almashtirish uchun qo'shimcha xarajatlarga olib keladi.

Kimyoviy tozalash Fransiyada paydo bo'lgan. 1825-yilda yirik bo'yoq zavodining egasi Jan-Batist Jolli tasodifan dasturxonga skipidar eritmasini to'kib yuboradi. Dasturxon quriganidan so'ng, eritma to'kilgan mato toza bo'lib qolganini aniqlaydi. U bu ish bilan qiziqadi va tajribani davom ettiradi. Biroz vaqt o'tgach, Jolli mato yuzalarida dog'larni olib tashlash bo'yicha dunyodagi birinchi xizmatni ochishga qaror qiladi. Quruq tozalash usuli juda uzoq



vaqt davomida qattiq himoyalangan sir bo'lib kelgan. Tozalash uchun Jolli lampalarda ishlatiladigan juda tez yonuvchi modda bo'lgan Kamfindan foydalangan.

Dastlab kimyoviy tozalash mis vannalarda qo'lda amalga oshirilar edi. Keyin 1869-yilda Buyuk Britaniyada birinchi marta mexaniklashtirilgan kimyoviy tozalash usuli qo'llanildi. O'sha paytlarda kimyoviy tozalashning ko'pgina afzalliklari bor edi, masalan: 1980-yilda kostyum yuvish 1 soat 30 daqiqa, dazmollash 1 soat 30 minut, ust kiyimni kimyoviy tozalash 30 minut, kimyoviy tozalashdan keyin dazmollash 1 soat davom etgan.

1920-yilda kimyoviy erituvchi perxloretilen kashf etildi va kimyoviy tozalash mashinalarining rivojlanishi tez sur'atlar bilan o'sa boshladi. Bularning barchasi asta-sekin kimyoviy tozalash tashkilotlari sonini ortishiga olib keldi. Hozirgi kunda kimyoviy

tozalash korxonalari buyumlarni yumshoq va samarali tozalash imkonini beruvchi zamonaviy uskunalar bilan jihozlangan. Hozirgi vaqtda kimyoviy tozalash xizmatini to'g'ridan-to'g'ri uyda amalga oshiruvchi turli xil tozalash (klining) tashkilotlari mavjud.

Kimyoviy tozalash - bu ikkita asosiy texnologiya (quruq tozalash va nam tozalash) dan foydalangan holda tozalash vositalariga ixtisoslashgan professional xizmatning umumiy nomidir. Ikkala texnologiya ham bozorning buyumlarga xizmat ko'rsatish uchun asosiy ehtiyojlarini to'liq qoplash imkonini beradi.

Nam tozalash – suv va professional mahsulotlardan foydalangan holda buyumlarni tozalash usuli bo'lib, suvda eriydigan choy, sharbat va organik dog'larni tozalashga ixtisoslashgan.

Quruq tozalash yog'da eriydigan dog'larni olib tashlash, nozik matolarni (jun, ipak, zamsh, teri) tozalash uchun va yorliqda "quruq tozalash" belgisi (doira) bo'lgan mahsulotlar uchun mo'ljallangan texnologiyadir.

4.2. XOM-ASHYO HAQIDA

Kimyoviy tozalash xizmatini tashkil etishda asosiy xom-ashyo vositasi bu "Perxloretilen" kimyoviy vositasidir.

Perxloretilen (tetraxloretilen) o'tkir hidli rangsiz suyuqlikdir. Portlovchi bo'lmagan, yonmaydigan, uchuvchan moddadir. Ko'pgina organik birikmalar bilan yaxshi aralashadi.

Sifatlari:

Kimyoviy tozalashda erituvchi sifatida ishlatiladi.

Mashinasozlik va metallurgiyada sirlarni yog'sizlantirish uchun ishlatiladi.



Kimyoviy birikmalar sintezida xom-ashyo sifatida ishlatiladi.

Xom-ashyo tayyorlash uchun charm, to'qimachilik va yog'ochga ishlov berish sanoatida ishlatiladi.

Saqlash:

Metall va oziq-ovqat mahsulotlaridan ajratilgan holda.

Xavflilik darajasi : 6.1.(Xavflilik darajasi 6.1 toifadagi moddalar organizmga kirganda, teri bilan aloqa qilganda yoki nafas olishda zaharlanish yoki kasallikka olib kelishi mumkin).

Perxlortilen erituvchilarning "oltin standarti" hisoblanadi – u matolarni shikastlamasdan samarali tozalaydi, shu bilan birga foydalanish xavfsiz va yonmaydi. Ko'pincha perxlortilenga turli xil faol moddalar (yuvish vositalari) qo'shiladi. Ular tozalash vositasining matoga chuqurroq kirib borishiga, hamda kir va dog'larni yo'qotishga yordam beradi.

Perxlortilen (PCE) - organik birikma bo'lib, uning xususiyatlari quyidagilardir: C_2Cl_4 , shaffof suyuqlik, zichligi $1,619 \text{ g/sm}^3$, qaynash nuqtasi 121°C , pH - 7.

PCE xususiyatlari har birining kimyoviy tozalash jarayoniga ta'siri.

1) zichlik

Zichlik erituvchining tozalash qobiliyatini aniqlaydi. Agar erituvchining zichligi $1,615 \text{ g / sm}^2$ dan kam bo'lsa, bu mahsulotning tozaligi yetarli emasligini ko'rsatadi, bu tashish va saqlash vaqtida erituvchining xavfsizligiga ta'sir qilishi mumkin.

2) tiniqlik

Erituvchining ko'rinishi xira bo'lsa, erituvchining kislotali qoldiqlarning paydo bo'lishi bilan parchalanish ehtimoli shunchalik yuqori bo'ladi va bu uskunaning korroziyasi xavfi (ayniqsa,

distillash sovutgichining mis quvurlari va suv separatorining devorlari) ortadi. Erituvchining tozalash qobiliyati pasayishi va ishlov berishdan keyin mahsulotlarda yoqimsiz hid paydo bo'lishi mumkin.

3) kislotalilik

Erituvchining pH (kislotalilik) qiymatining neytral qiymatdan og'ishi barqarorlashtiruvchi komponentlarsiz ishlab chiqarish yoki saqlash texnologiyasini buzish natijasidir (stabillashtirilmagan PCE mashinasozlik ehtiyojlari uchun mo'ljallangan). Kimyoviy tozalashda ishlatiladigan PCE uchun kislotalash yoki ishqorlanish qabul qilinishi mumkin emas, chunki bunday erituvchi bilan ishlov berilganda mahsulotdagi bo'yoqning shikastlanishi va uskunaning korroziyasi xavfi juda yuqori. Perxlortilenni





kimyoviy tozalash mashinasida neytral holatda saqlash uchun distilllanganda stabilizator kerak bo'ladi.

4) suv tarkibi

PCEdagi sezilarli suv miqdori uzoq muddatli saqlash va kislotali qoldiqlarning shakllanishi bilan parchalanish paytida uning beqarorligiga olib keladi. Bundan tashqari, haddan tashqari suvlangan erituvchi mahsulotlarning qaytarilmas qisqarishiga yoki ifloslantiruvchi moddalarning rezorbsiyasiga olib kelishi mumkin (tolalardagi ishchi eritmadan ifloslantiruvchi moddalarning cho'kishi va mahkamlanishi).

5) rang va hid

Tajribali texnolog perxloretilenni yaxshi yoki yomonligini hid bilan aniqlashi mumkin. Toza erituvchi yengil efir hidiga ega bo'ladi. Erituvchining rangidagi xiraliklar yoki erituvchining pH qiymatining o'zgarishi unga yoqimsiz hid (nordon, chirigan, og'ir

ishqoriy) beradi. Shu bilan birga, stabilizator qo'shilgandan so'ng yangi ishlab chiqarilgan barqarorlashtirilmagan perxloretilenning xarakterli efir hidiga ega bo'ladi.

4.3. JIHOZ VA USKUNALAR. ISHLAB CHIQARISH JARAYONI.

Kimyoviy tozalash xizmatini tashkil etishda quyidagi uskunalar kerak bo'ladi.

N ^o	Uskuna nomi	Soni (dona)
1	Lavanda P300 kimyoviy tozalash mashinasi	1
2	Lavanda V dog'larni bartaraf etish stoli	1
3	Lavanda E6 dazmollash tizimi	1
4	Lavanda WHU10E PW3 kir yuvish mashinasi	1
5	Lavanda TDU10E quritish mashinasi	1
6	Lavanda ZA10 bug'li maneken	1
7	Imesa MCA210 dazmollash g'altagi	1
8	HAWO 630 KST qadoqlovchi	1
9	Stellaj, stol, aravalar	komlekt

Ushbu uskunalar to'plami Xitoy Xalq Respublikasida ishlab chiqariladi.

Kimyoviy tozalash xizmatini tashkil etish uchun yuqoridagi uskunalar to'plamini maqbul yetkazib beruvchidan sotib olish



maqsadga muvofiq. Hozirgi vaqtda yurtimizda turli xil uskunalarini yetkazib beruvchi va loyiha tashabbuskoriga uskunalarini to'g'ri ishlatishni o'rgatuvchi injiniring tashkilotlari mavjud.

Kiyim- kechak va buyumlarni kimyoviy tozalashda uskunalarini to'g'ri ketma-ketlikda ishlatish juda muhimdir.

Kimyoviy tozalash uskunalarini deganda kiyim- kechak va buyumlarni tozalashda xom-ashyo sifatida suv o'rniga turli xil erituvchilardan foydalanadigan uskunalar tushuniladi.

Agar kimyoviy tozalash uskunalarining xususiyatlariga to'xtaladigan bo'lsak, unda, birinchi navbatda, an'anaviy keng doirada va tor doirada ishlatiladigan uskunalar mavjudligini ta'kidlash kerak. Kimyoviy tozalash uskunasi nisbatan murakkab, katta va og'ir uskuna bo'lganligi sababli, uskunalar joylashadigan xonani tanlash, birinchi navbatda, uni olib kelish, joylashtirish va ma'lum bir xonaga o'rnatish imkoniyatlariga bog'liq.



Ushbu uskunalarining eng muhim ko'rsatkichlari - bu mashinaning bir martalik yuklanishi (barabanni yuklash koeffitsiyenti 1:20 da ko'rsatilgan). Ularning eng kichigi - 8-12 kg – odatda mehmonxona kimyoviy tozalagichlarida qo'llaniladi, bu yerda yuqori mahsuldorlik ko'pincha talab qilinmaydi va bir xil turdagi mahsulotlarning katta partiyasini yig'ish imkoniyati yo'q. Og'irligi 80 kg gacha bo'lgan kattaroq mashinalar kamdan-kam uchraydi va yirik korxonalarda qattiq ifloslangan ish kiyimlarini yoki gilamlarni tozalash uchun ishlatilishi mumkin.

Kimyoviy tozalash uskunalarini o'z funksiyalarini bajaradigan juda ko'p turli xil komponentlardan (agregatlardan) tashkil topgan murakkab qurilmadir. Bu uskunalarining bajaradigan ishi va funksiyalari qanchalik ko'p bo'lsa ularni narxi ham mos ravishda qimmat bo'ladi. Mashina konfiguratsiyasining eng muhim parametrlari erituvchi baklar soni va filtrlar soni (turi)





hisoblanadi. Bunga qo'shimcha ravishda, xavfsizlik patnisi quritishni avtomatik boshqarish, avtomatik (bir yoki ikkita) erituvchi tarqatish moslamalari, erituvchini (perxloretilen) suv yoki muzlatgich bilan sovutish, ikkinchi separator, distillyatorni quritish, va hokazolar bo'lishi mumkin.

4.4. INFRASTRUKTURA

Ushbu loyihada qurilish montaj ishlari amalga oshirilmaydi. Loyihani amalga oshirish uchun maqbul joydan bino ijaraga olinadi. Ammo jihoz va uskuna binoda joylashishi uchun binoni moslashtirish zarur bo'ladi.

Kimyoviy tozalash xizmatini tashkil etishda loyiha tashabbuskori joy tanlay bilishi alohida ahamiyatga ega. Kimyoviy



tozalash xizmati tashkil etiladigan joy potensial xaridorlarga yaqin va uskunalarni to'g'ri joylashtirishga mos bo'lishi zarur.

Kimyoviy tozalash xizmatini tashkillashtirish uchun faoliyatni amalga oshiriluvchi joyga qo'yilgan bir qator talablar mavjud, unga ko'ra faoliyat yuritiluvchi joy 60 kvadrat metr maydondan kam bo'lmasligi, shiftning balandligi kamida 3 metr va aholi yashaydigan joydan kimyoviy tozalash binolarigacha bo'lgan minimal masofa kamida 80 metrni tashkil qilishi kerak. Ammo turar-joy zich joylashgan hududda kimyoviy tozalash uskunalarni joylashtirish uchun barcha ruxsatnomalarni olish deyarli mumkin emas. Shu bois, ushbu faoliyatni amalga oshirishda aholi zich joylashgan hududlarda kimyoviy tozalash uchun kiyim-kechak va buyumlarni yig'ish punktlarini ochish, kimyoviy tozalash sexining o'zini esa ijara haqi past va joylashuvni qonuniylashtirish qiyin bo'lmagan shahar tashqarisiga ko'chirish mumkin.



5. MARKETING KONSEPSIYASI



5.1. MARKETING KONSEPSIYASI

Zamonaviy dunyoda loyiha faqat iste'molchilarning talablarini e'tiborsiz qoldirmasa, muvaffaqiyatga erishishi mumkin. Talablarni tadqiq qilish va mijozlarning maksimal talablarini qondirish samaradorligini oshirish uchun yangi mijozlarni qo'lga kiritishni, hamda mavjud mijozlarga sifatli xizmat ko'rsatishni, mahsulot yetkazib berishni davom ettirmoqchi bo'lgan tadbirkor, ular haqiqatan ham nimani xohlashlarini va ularga nima kerakligini bilishi kerak.

Bozorni segmentatsiya qilish turli xil obyektlar bo'yicha amalga oshiriladi, ammo marketingda eng katta e'tibor iste'molchilarning xohishlariga qaratiladi. Shu bilan iste'molchilar tashkilotning marketing harakatlariga turli xil qarashlari bo'yicha bozorni segmentatsiya qilishi kerak bo'ladi.

Bozor segmenti – o'xshash afzalliklarga ega bo'lgan, bir xil xususiyatlarga xos va marketing takliflariga bir xil javob beradigan iste'molchilar majmui.

Taklif tuzilmasidan kelib chiqib, bozorning quyidagi makrosegmentlarini ajratish kerak:

- **iste'mol bozori**
- **sanoat bozori.**

Iste'mol bozori. Bizning ushbu segmentdagi iste'molchilarimiz respublikaning turli yoshdagi, har xil daromad darajasi va oilaviy ahvoli turlicha bo'lgan barcha aholisidir.

O'zbekiston aholisi soni bo'yicha MDH mamlakatlari orasida Rossiyadan keyin ikkinchi o'rinda turadi. BMT Aholishunoslik jamg'armasining jahon reytingida respublika 41-o'rinni egallaydi. O'zbekiston Respublikasi Davlat statistika qo'mitasining

ma'lumotlariga ko'ra, O'zbekiston Respublikasining doimiy aholisi 2024-yil 22-aprel holatiga 37 milliondan ortiq kishini tashkil etdi.

O'zbekiston Respublikasi Davlat statistika qo'mitasining ma'lumotlariga ko'ra, aholi daromadlari o'sishda davom etmoqda.

O'zbekiston bozorida raqobatchi bo'lgan ko'plab mahalliy korxonalar faoliyat ko'rsatmoqda.

Nº	Raqobatchilar
1	AYSBERG KIMYOVIY TOZALASH
2	LUX KIMYOVIY TOZALASH
3	DOLPHINE KIMYOVIY TOZALASH
4	ELITE CLEANING MCHJ
5	EXPO CLEAN XK
6	CHISTO FF KIMYOVIY TOZALASH
7	PUSHINKA KIMYOVIY TOZALASH
8	DELTA PROJEKT MChJ NANO CLEAN KIMYOVIY TOZALASH
9	STANDART CLEANING MChJ LAURA KIMYOVIY TOZALASH



Ammo bozorda barcha ko'rsatilayotgan xizmatlarga yetarlicha talab mavjud va keskin raqobat kuzatilmaydi.

O'zbekiston Respublikasining bozor iqtisodiyotiga o'tishi, iqtisodiy mustaqilligini ta'minlash va mamlakatning eksport salohiyatini kengaytirish mavjud standartlarga mos keladigan zamonaviy, yuqori sifatli mahsulotlar ishlab chiqarishni talab qiladi.

Ushbu loyiha O'zbekiston Respublikasi hududida kimyoviy tozalash xizmatini tashkil etish orqali O'zbekiston Respublikasining ushbu xizmat turi bo'yicha salohiyatini oshirishga qaratilgan. Ushbu loyihani amalga oshirish mahalliy va jahon bozorida talab yuqori bo'lgan yuqori sifatli kimyoviy tozalash xizmatini tashkil etishga imkon beradi.

Loyiha tashabbuskoriga mahsulot sotilishining asosiy rag'batlantiruvchi omillari quyidagilardan iborat bo'lishi zarur.

- **narx;**
- **sifat.**

Loyihaning marketing strategiyasi ko'rsatilayotgan xizmat






sifatiga, mahsulotning ushbu turiga bo'lgan talabni doimiy ravishda o'rganishga, bozordagi vaziyatga moslashuvchan javob berishga asoslanadi. Shuningdek, loyihaning mablag'larini loyihani kengaytirishga qayta yo'naltirish va shundan kelib chiqib, narxlar siyosati va taktikasining moslashuvchanligiga erishish orqali marketing strategiyasini takomillashtirib borishi kerak.

Ushbu loyiha bo'yicha ko'rsatiladigan xizmatlar assortimenti bozorda raqobatchilar tomonidan sotiladigan xizmatlarning qiyosiy tahlili quyida keltirilgan:

№	Assortiment nomi	O'lchov birligi	Sotish narxi (so'm)	
			Loyiha tashabbuskorida	Raqobatchilarda
1	Ko'ylakni kimyoviy tozalash	dona	20	30
2	Shimni kimyoviy tozalash	dona	20	35
3	Kostyumni kimyoviy tozalash	dona	40	60
4	Kalta paltoni kimyoviy tozalash	dona	60	100
5	Uzun paltoni kimyoviy tozalash	dona	80	110
6	Pardani kimyoviy tozalash	m ²	15	20
7	Ko'rpani kimyoviy tozalash	m ²	17	23



Yuqorida keltirilgan jadvaldan ko'rinib turibdiki, loyiha bozorda o'rtacha xaridor uchun qulay bo'lgan xizmat ko'rsatish narxining pastligi afzalligiga ega.

Bozorni o'rganish va tadbirkorlarning ilg'or tajribasi shuni ko'rsatdiki, ishlab chiqarishni tashkil etishda bozor konyunkturasini doimiy ravishda o'rganish kerak.

Hududlardan foydalanish samaradorligini oshirish, shuningdek, sarflangan mablag'larni qaytarishni tezlashtirish uchun so'nggi paytlarda zamonaviy kimyoviy tozalash punktlari tashkil etilmoqda. Investitsiyalarni qaytishi muddati eski texnologiyalar asosida tashkil etilgan korxonalar bilan taqqoslaganda sezilarli darajada qisqa. Zamonaviy kimyoviy tozalash uskunalarining energiya tejaydigan turini qo'llashning maqsadga muvofiqligi aniq.

Kimyoviy tozalash uskunalarining energiya tejaydigan turlari mamlakatimizda hali keng tarqalmagan, ammo so'nggi paytlarda u tobora ommalashib bormoqda. Bu kelgusida mamlakatimiz hududida kimyoviy tozalash uskunalari turlarining ko'payishiga olib keladi.



Loyiha tashabbuskori o'zining vazifasi maksimal foyda olish deb bilishi lozim, shu bilan birga ko'rsatiladigan xizmatning narxi iste'molchilar uchun maqbul bo'lishi kerak.

Narxni belgilashning asosiy tamoyili xizmatning narxini shunday darajada belgilashdirki, u birinchidan, sotuvchining xizmat uchun sarflagan xarajatlarini qoplashi va ikkinchidan, sotuvchi ham, xaridor ham o'zaro foyda (foyda, daromad) olishini ta'minlashi zarur.

Nomlanishi	O'lchov birligi	Maksimal ishlab chiqarishdagi soni	Sotish narxi (ming so'm)	Summasi (ming so'm)
Ko'ylakni kimyoviy tozalash	dona	10 080	20	201 600
Shimni kimyoviy tozalash	dona	10 080	20	201 600
Kostyumni kimyoviy tozalash	dona	3 360	40	134 400
Kalta paltoni kimyoviy tozalash	dona	3 360	60	201 600
Uzun paltoni kimyoviy tozalash	dona	3 360	80	268 800
Pardani kimyoviy tozalash	m ²	13 440	15	201 600
K o'rpani kimyoviy tozalash	m ²	8 400	17	142 800





6. XIZMAT KO'RSATISH REJASI



6.1. XIZMAT KO'RSATISH REJASI

Loyihani samarali amalga oshirish uchun loyiha tashabbuskori quyidagi tadbirlarni amalga oshirishi lozim bo'ladi:

1. Loyiha konsepsiyasini ishlab chiqish;
2. Loyiha texnik-iqtisodiy asoslarini, moliyaviy hisob-kitoblarini va marketing strategiyalarini ishlab chiqish;
3. Loyiha tashabbuskori tadbikorlik subyekti sifatida tashkilotini davlat ro'yxatidan o'tkazish;
4. Xizmat ko'rsatishni tashkillashtirish uchun maqbul shartlardagi bino izlash;
5. Uskuna va xom-ashyo yetkazib beruvchilar bilan aloqalarni o'rnatish;
6. Kredit tashkilotlari bilan muzokaralar o'tkazish va moliyalashtirish manbalarini aniqlash;
7. Loyihani moliyalashtirish hujjatlarini ishlab chiqish va bankka taqdim etish;
8. Bank tomonidan moliyalashtirishning ochilishi;





9. Ijaraga olingan bino mulkdori bilan shartnoma rasmiylashtirish;

10. Binoga uskunalar to'plamini to'g'ri joylashtirish;

11. Xizmat ko'rsatishni yo'lga qo'yish;

12. Sotishni tashkil qilish.

Loyiha tashabbuskori loyihani amalga oshirishning birinchi yilida 60% dan xizmat ko'rsatish quvvatlarini bosqichma-bosqich o'zlashtirishni va loyihani amalga oshirishning 5-yiliga kelib xizmat ko'rsatish quvvatini kamida 75% gacha yetkazishni rejalashtirishi zarur.

Yillar bo'yicha quvvatlarni o'zlashtirish koeffitsiyenti:

	1 yil	2 yil	3 yil	4 yil	5 yil
Quvvat o'zlashtirilishi % da	60%	65%	70%	70%	75%

Ekologik hujjatlarni rasmiylashtirish

Ekologik nazorat obyektlari quyidagilardan iborat:

yer, yer osti boyliklari, suvlar, o'simlik va hayvonot dunyosi, atmosfera havosi atrof-muhitga ta'sir ko'rsatuvchi tabiiy va texnogen manbalar, atrof-muhit ifloslanishiga va tabiiy resurslardan nooqilona foydalanilishiga olib kelishi, fuqarolarning hayoti va sog'lig'iga tahdid solishi mumkin bo'lgan faoliyat, harakat yoki harakatsizlik.

Ekologik nazoratning turlari:

- davlat ekologik nazorati;
- idoraviy ekologik nazorat;
- ishlab chiqarish ekologik nazorati;
- jamoatchilik ekologik nazorati.

Har qanday yangi loyiha bo'yicha ishlab chiqarish korxonasini tashkil etilishida ekologiya yo'nalishi bo'yicha 5 ta normativ-hujjat ishlab chiqilishi majburiy tarzda qonunchiligimiz bilan mustahkamlanib qo'yilgan. Bular:

AMTA – atrof-muhitga ta'siri arizasi haqidagi hujjat;

EOA – ekologik oqibatlar arizasi haqidagi hujjat;

PDV – atmosfera qatlamiga chiqariladigan tashlamalar haqidagi normativ;

PDS – yer qatlamiga chiqariladigan zararli chiqindi oqavalar haqidagi normativ. Agar chiqindi suvlar kanalizatsiya tarmog'iga ulansa KEN normativi ishlab chiqariladi ;

PDO – ishlab chiqarish korxonasining faoliyati davomida ajraladigan sanoat va maishiy chiqindilarning hududga va atrofga joylashtirilishi haqidagi normativ. Agar chiqindilar ekologik sertifikatlangan bo'lsa kompensatsion to'lovlarga tortilmaydi.



7. HR REJASI



7.1. HR REJASI

Loyiha tashabbuskori har bir xodim loyihaning muvaffaqiyatiga to'liq hissa qo'shishi va shu bilan birga o'zining professional, shaxsiy o'sishi va ijtimoiy himoyalangan bo'lishi uchun barcha zarur amallarni bajarishi lozim. Mehnat haqi adolatli bo'lishiga va xodim hamda loyiha tashabbuskori o'rtasidagi munosabatlarning sheriklik tamoyillarini aks ettirishiga intilishi kerak.

